

LEKSIK USLUBIY VOSITALARINING TARJIMADA BERILISHI

O'. Qo'ldoshov

SamDCHTI, PhD

Annotatsiya: Maqolada badiiy asarda qo'llanilgan uslubiy vositalar va ularning tarjima tahlili amalga oshirilgan. Asliyatda qo'llanilgan uslubiy vositalarni tarjima matnida ham saqlash mashaqqatlari va ahamiyati haqida fikrlar berilgan. Uslubiy vositalar asliyat muallifi fikrlarini hissiy-bo'yoqdor qiluvchi vosita bo'lgani kabi, tarjimada ham bu vositalar tarjimon uchun tarjimaning emotsionalligini oshiruvchi asosiy tamoyil vazifasini o'tar ekan.

Kalit so'zlar: leksik uslubiy vositalar, turg'un birikma, parafrazalash, badiiy estetik joziba, badiiy nutq, aysberg prinsipi, tasviriy ifodalar, kinoya, evfemizmlar.

Abstract: The article analyzes the stylistic devices used in the literary work and their translation peculiarities. Thoughts are given about the difficulty and importance of preserving the stylistic devices of the original text in the translated text too. Just as stylistic devices are means that emotionally colors the thoughts of the original author, in translation, these means serve as the main principle that increases the emotionality of the translation for the translator.

Key words: lexical stylistic devices, stable word combinations, paraphrasing, literary esthetic appeal, iceberg principle, descriptive stylistic devices, irony, euphemism.

Badiiy asarning ta'sirchanlik vazifasini ta'minlab beruvchi eng e'tiborga molik jihatlardan biri bu, albatta, leksik uslubiy vositalarning o'z o'rnida ishlatilishidir. Turli muomala vaziyatlarida yozuvchilar turli uslubiy xarakterga ega so'zlarni tanlab ishlatadilar. Ba'zi uslubiy iboralar doimiy ravishda takroran ishlatilaverganligidan turg'un birikma holiga kelib tarjima tilida ham doimiy muqobiliga ega bo'lishi mumkun. Masalan: *true love* – *истинная любовь*, *chin sevgi*, *dead silence* – *мертвая тишина*, *o'lik sukunat*, *good old England* – *добрая старая Англия*, *ko'hna mehribon Angliya*.

Leksik uslubiy vosita sifatida parafrazalarning tez-tez ishlatilishi ham ingliz tiliga hos jihatdir. Bazi bir ingliz parafrazalari jahon klassik manbalari bo'lmish mifologiya yoki Injildan olingan bo'lib tarjima tilida ham doimiy muqobilga ega bo'lish mumkun: (*the three sisters* – *богини судьбы*, *taqdir malaklari*, *the prince of darkness* – *принц тьмы*, *zulmat shaxzodasi*, *Attic salt* – *аттическая соль*, *o'tkir zehn egasi*).

Ba'zi bir tasviriy birikmalar ibora sanalib, o'xshash tarzda tarjima qilinishi mumkun. Masalan, quyidagi tasviriy iboralarning ruscha muqobillari bir xil ko'rinish kasb etishi, o'zbekcha muqobillari esa farq qilishi kuzatiladi: *white as snow* – *белый как снег* - *raxtaday oq* yoki *qorday oq*. Shuningdek tarjimada tasviriy ifodalar umuman boshqacha usulda ifodalanishi mumkun: *thin as a rake* – *худой как щетка* – *cho'pday oriqlik*, *a ray of hope* – *проблеск надежды* – *umid uchquni*).

Bir nechta ingliz metafora va o'xshatishlari ruscha yoki o'zbekchaga so'zma-so'z tarjima qilinish holatlari ham kuzatiladi: "*as busy as a bee*" *трудолюбивый как пчела*, lekin o'zbekchada bu noo'xshash holatda, ya'ni boshqa narsaga nisbatan o'xshatish amalga oshiriladi: "*chumoliday mehnatsevar*".

Leksik stilistik vositalar badiiy asarga o'ta muhim va ajralmas badiiy estetik joziba kasb etgan holda, ular yozuvchining o'zigagina xos bo'lgan uslubini ham namoyon qiladi va asarning badiiyligiga munosib hissa qo'shadigan vositalardandir. Asliyat matnida ishlatilgan leksik stilistik vositalarni tarjimada ham saqlab qolish tarjimondan katta mahorat talab qiladi. Saqlab qolib bo'lmaydigan leksik stilistik vositalarni esa qanday usullarda, qanday vositalar bilan ifodalash tarjimonning mahoratiga bo'g'liq, albatta. Leksik uslubiy vositalar asosan tilning badiiy nutq janriga taalluqlidir. Bu esa tarjimonga nutqning – badiiy nutq janriga oidlik xususiyatini ham saqlab qolishdek murakkab vazifasini qo'yadi. Chunki tarjimon ham og'zaki nutq janrini ham hissiy ta'sirchanlikni va shu bilan birga badiiylilikni saqlashga harakat qilish kerak.

Atoqli adib E. Hemingueyning "Alvido, qurol!" asari misolida leksik uslubiy vositalarning tarjimadagi talqiniga nazar tashlar ekanmiz, ushbu adibning o'z ijodida bir lahza ham "aysberg" prinsipidan chekinmaganligining guvohi bo'lamiz. U doimo ushbu tamoyilni ijodining asosi sifatida o'zining barcha asarlarida amalga oshirgan. Asarda ishlatilgan barcha stilistik usullar asarga ko'rk, joziba berish bilan birga o'ziga xos ichki, yashirin ma'no ham kasb etadi. Masalan, bu holatni ushbu jumalalarda kuzatishimiz mumkin, ya'ni asarning qirqinchi bobi quyidagi jumalar bilan boshlanadi: *We had a fine life. ... and the winter was very fine and we were very happy. Biz juda baxtiyor yashardik. ... qish soz edi, biz juda baxtiyor edik.*

Biz bilamizki asar urush, jang-u jadal ruhida yozilgan, unda o'sha davr azob-uqubatlari tasvirlangan, shunga qaramasdan asar qahramonlarining "*hayotimiz juda go'zal*" deyishi bu bir kinoyaning ishlatilishidir. Qizig'i ham shundaki asar qahramonlari hayotlarining keyingi bosqichlarida baxtli hayotning guvohi bo'lmaganlar. Bu joyda biz kitob bobining kinoyali boshlanishining ahamiyati katta ekanligiga e'tibor bermog'imiz lozim. Xeminguey ijodida kinoyalarning ishlatilishi birmuncha yashirin xarakterga ega, bu esa kitobxonni ziyraklikka undaydi, ijodiy faolligini talab etadi. "Alvido, qurol!" asarining g'oyaviy, shuningdek badiiy o'ziga xosligi hayotda haqiqatdek tuyulgan soxta harakatlarni, aldanchiliklarni kinoya orqali kitobxoniga yetkazishdir. Ya'ni ular: o'shanday nohaqlik davrida haqqoniylikka ishonch va birinchi jahon urushining aldanchi muqaddas maqsadlari, askarlarni xuddiki juda ulug'vor ishni amalga oshirayotganlariga, ozodlik uchun kurashayotganlariga ishontirish, aslida esa bularning hammasi davr, imperialistic urush aldanchiliklari edi xolos. Kitob muallifi ongli ravishda shunday fikrda bo'ladiki, urushlarda jang qilayotgan odamlar dunyodagi eng ajoyib odamlardir, frontning qizg'in qismlariga kirib borar ekansiz bunday odamlarga ko'proq duch kela boshlashingizni, va shu odamlarning go'zal ichki dunyosini ochib berish maqsadida muallif ko'pdan-ko'p uslubiy vositalardan foydalangan.

Leksik uslubiy vositalardan yana biri, o'xshatish usuli, quyidagi jumlada ham ishlatilgan bo'lib, unda ko'chalarning sovuqdan yanada metindek qattiqligiga e'tiborni qaratmoqda. Muallif sovuqning yanada kuchaygani sari urush davrida hayotning ham juda qiyinlashayotganligiga, urushning dahshatli oqibatlariga e'tiborni qaratmoqchi. Ushbu holat tarjimada ham saqlangan: *I had gone to no place where the roads were frozen and hard as iron, where it was clear cold and dry...(p38) Lekin men yo'llari huddi temirday qattiq, qatqaloq, sovug'i quruq va achchiq yerlarga borolmadim...(100 c.)*

Quyidagi parchada esa qahramonning chuqur kechinmasini ifodalagan, uslubiy jihatdan bo'yoqdorlikka ega "awfully sorry" so'z birikmasi tarjimada o'z aksini topmay qolgan. Chunki asar qahramoni suhbatdoshining yaqin bir kishisi vafot etganligini eshitib qattiq iztirob chekib uzr so'raganini ifodalamoqda. Tarjimada faqatgina "kechiring" tarzida oddiy so'z orqali ifodalangan: "What is the stick?" - I asked. - "It belonged to a boy who was killed last year". - "I am awfully sorry" - Qo'lingizdagi qanaqa aso? - so'radim men. - Bu bir ofitserniki, u o'tgan yili xalok bo'ldi. - Kechiring. Hech bo'lmaganda bunday holatlarda o'zbeklar tomonidan ko'p qo'llaniladigan "uzr, bilmagandim" jumlasidan foydalanilganda yanada maqsadga muvofiqroq bo'lardi.

Baddiy asarda ba'zan biror salbiy ma'noli so'zni ijobiylashtirib ifodalash usuli ham bo'lib u litota (parafraza) usulidir, quyidagi parchada "qayt qilmoq ya'ni ko'ngli aynimoq" so'zining inglizcha varianti "was very sick on the floor" shaklida berilmoqda, aslida esa shu so'zni ifodalovchi so'z "vomit" inglizchada mavjud, lekin muallif ushbu so'zni bir oz yumshatgan holda ishlatgan, lekin shunisi tahsinga loyiqki tarjimada ham shu yumshatish saqlangan, zero "ko'ngli aynimoq" so'zi o'zbek tilida ijobiyroq xarakterga ega: *I got drunk and slept until past Vicenza where I woke up and was very sick on the floor. It didn't matter because the man on that side had been very sick on the floor several times before. (p.86)*

Mast bo'lguncha ichib Vichentsaga yetguncha uxlab qolibmiz, shu yerga kelganda uyg'onib ketdim, ko'nglim ag'darildi, po'lga qayt qildim. Buning ahamiyati qolmagandi, chunki qo'shnim mendab burunroq bir necha bor ko'ngli ag'darilgan ekan. (158 c.)

Quyidagi misolda "customers" so'zi ikki ma'noni bir vaqtning o'zida ifodalab kelmoqda va bu holat ingliz tilida "Pun" (so'z o'yini) deb ataladigan stilistik vositaning ishlatilishiga sabab bo'lmoqda. Customer so'zi ikki ma'noga ega, biri san'at asarlarini sotuvchi kishi, ikkinchisi bojxona xodimi. Ushbu keltirilgan misolda "customer" so'zi bojxona xodimi ma'nosida ishlatilgan. Lekin tarjimada noto'g'ri tarzda "buyurtmachi" shaklida tarjima qilingan. Bu yerda bir so'zning ikki ma'nosi chalkashtirib yuborilgan va tarjimada bu stilistik usul saqlanmagan:

"You see I'll make you a fine wife," Catherine said. "I'll be able to talk art with your customers". "Here he comes," I said. The thin lieutenant came down the length of the custom house, holding our passports. (p.245)

- Ko'rdingmi qanday ajoyib xotining bor, - dedi Ketrin. - Men san'at haqida sening buyurtmachilaring bilan bahslasha olaman. - Ana u kelyapti, - dedim. Oriq leytenant bojxononaning ichkarisidagi pasportlarimizni ko'tarib qaytib keldi.(335c)

Yuqorida parafrazalar haqida so'z yuritganimizda, shu ma'lum bo'ldiki, ular nutqning maxsus shakli bo'lib, qandaydir bir munosabat tasvirini ibora tarzida, yangi mavjud boshqa bir usul tarzida ifodalash ekan, parafrazada erkin so'z birikmasi yoki butun bir gap mavjud narsa yoki hodisa nomini olishi mumkin, ularning ba'zilari tilning lug'at tarkibiga frazeologik birlik tarzida kirar ekan. Parafrazalarning ma'nosi odatda keng matnlarda ochiladi. Ba'zi parafrazalarni tushunib yetish uchun adabiy faktlar, ilohiy obrazlar, tarixiy voqea yoki xalq qahramonlari haqida ma'lumotga ega bo'lmoq kerak. An'anaviy parafrazalar narsa yoki hodisaga xos bo'lgan qandaydir xususiyatga asoslangan bo'ladi. Parafrazalarning uslubiy vazifalaridan biri satirik yoki yumoristik ta'sir yoki sarkazm tasvirini hosil qilish. Muammo esa parafrazalar ifodalagan ushbu satirik, sarkastik yoki frazeologik tushunchani tarjima tilida saqlab qolish mumkin yoki mumkin emasligi quyidag misolda o'z aksini topgan. Masalan: "Come on", said Miss Handforth, "has the cat got your tongue?" Ushbu misolda "has the cat got your tongue?" jumlasini "gapira olasanmi o'zi?" ma'nosida kelmoqda. Buni o'zbek tiliga "mum tishlaganmisan" iborasi bilan ham ifodalasak bo'lardi. Zero, o'zbek tilidagi "mum tishlaganmisan" idorasi ham frazeologik birlik sifatida parafraza shaklida ishlatiladi. Demak parafraza shaklida berilgan tushunchani tarjima tiliga ham parafraza shaklida aks ettirish badiiy muqobilikni saqlash mezonlaridan biri.

Evfemizmlar tarjimasidagi muammolarga keladigan bo'lsak, tilda allaqachon nomlangan tushunchalarni qayta atash uchun yaratiladigan va qo'pol, yoqimsiz so'zlar o'rnida ishlatiladigan so'zlar ingliz tilidagi ham mavjud bo'lib, ularni o'zbek tiliga tarjima qilganimizda evfemizmlarni saqlash mumkin ekan-u, lekin ular davr o'tishi bilan eskirib yoki o'zgarib turishi tarjimonga muammo tug'dirar ekan.

Ingliz tilida "to lie" - aldamoq so'zining o'rniga odamlar ko'pincha "to tell stories" birikmasini ishlatadilar. Shunisi qiziqki, o'zbek tilida ham ushbu birikmaning to'liq muvofiq variantini uchratishimiz mumkin, y'ani o'zbek tilida ham "aldamoq" so'zining o'rniga "cho'pchak aytmoq" birikmasi ishlatiladi.

Evfemizmlarni ishlatishdan maqsad va vazifa jamoatchilik fikrini chalg'itish, noxush siyosiy haqiqatdan qochish va siyosiy shaxslarning ismlarini o'z nomi bilan atamaslikka qaratilgan ekan, tarjimada ham ushbu vazifani saqlab qolish tarjimondan mahorat talab etadigan jihat.

Leksik uslubiy vositalar va ularning tarjimadagi talqini haqida tadqiqot olib borar ekanmiz quyidagi jihatlarni xulosa sifatida ta'kidlab o'tish joiz:

1. Tarjimon biror badiiy tarjimini amalga oshirar ekan avvalo asl tilida yozilgan asarning muallifi hayoti, yozish uslubi haqida ma'lumotga ega bo'lishi lozim.
2. Asl tilidagi bir uslubiy vosita tarjima tilida ko'p hollarda boshqa bir uslubiy vositaga almashtirilib tarjima qilinar ekan.

3. Uslubiy vositalar har bir tilda badiiy asar uchun muallif fikrlarini sayqallashtiruvchi vosita bo'lgani borasida tarjimada ham bu vositalar tarjimon uchun tarjimoni sayqallashtirish uchun asosiy tamoyil vazifasini o'tar ekan.

4. Bir tildagi neytral so'z bilan ifodalangan tushuncha yoki voqealar tarjimada uslubiy vositalar bilan ham ifodlanishi mumkin ekan va aksincha, ba'zida ingliz tilidagi uslubiy vositalar o'zbek tilidagi oddiy neytral so'zlar bilan ifodalanib qolganligini asar tarjimasi tahlili misolida kuzatdik.

5. Uslubiy vositalarning qay tarzda ishlatilishi insonning psixologik holatiga, yoshiga, bilim darajasiga, jinsiga, yashash sharoitiga, egallab turgan lavozimiga, muloqotning qay vaqtda hamda, qay tarzda bo'lib o'tishiga va albatta, yashayotgan hududiga ham bog'liq bo'lar ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Komissarov V.N., Koralova A.L. "A Manual of translation from English into Russian" Москва. "Высшая школа" 1990.
2. Hemingway Ernest "A Farewell to Arms!" Moscow. Progress Publishers. 1976.
3. Хемингуей Эрнест "Алвидо, курол!" Тошкент. "Ёш гвардия" 1986 й.
4. Кулдошов У. Инглиз ва ўзбек тилларида конверсивлик ва антонимлик ҳодисаси //Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2021. – №. 3 (80). – С. 67-73.
5. Daminov N. K. SIMULTANEOUS TRANSLATION INTERPRETING AS A MODERN TYPE OF TRANSLATION //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 77-81.
6. Daminov N. Using some strategies in simultaneous interpreting process //E3S Web of Conferences. – 2023. – Т. 381. – С. 01104.
7. Kasimova A. N., Nurullayeva D. S. H. NEOLOGISMS IN MODERN ENGLISH AND THEIR TRENDS IN WORD FORMATION (BASED ON TEXTS IN THE MEDIA) //Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 130-133.
8. Sukhrobovna N. T. AXBOROT TEXNOLOGIYALARDA MATNLARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 24. – С. 1087-1090.
9. Xidirovich N. X., Daminov N. Q. SINXRON TARJIMON NUTQIGA QO 'YILADIGAN TALABLAR //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 21-27.
10. Сафаров Ш. Тил бирлиги ва воқелик муносабати //Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2021. – №. 2 (79). – С. 5-8.